**“T A S D I Q L A Y M A N”**
**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ**
**huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi**
**o‘rinbosari**
**X.R. Raupov**
**2025 yil “ 3 ” 07**

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ huzuridagi**
**Jamoatchilik kengashining**
**YIG‘ILISH BAYONI № 4/2025**

**Navoiy shahri** **2025 yil “ 3 ” 07**

**Raislik qiluvchi:** X.R.Raupov -Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari

**Ishtirok etdi:** Kengash va Ekspertlar guruhlari a’zolari *(ro‘yxat bo‘yicha)*

**KUN TARTIBI:**
**Ochiqlikni ta’minlash ekspertlar guruhi va Korrupsiyaga qarshi kurashish ekspert guruhi tomonidan belgilangan vazifalar bajarilishi hamda faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida**
*(Raupov, Avezov, Temirov, Jo‘raev, Davlatov, Karimova, ... Raupov)*

Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.Raupov raisiligida Ochiqlikni ta’minlash ekspertlar guruhi va Korrupsiyaga qarshi kurashish ekspert guruhi tomonidan kengash Nizomi va ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi tahliliy-tanqidiy muhokama qilindi va kengash faoliyatini yanada kuchaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Muzokarada O.Temirov, B.Davlatov, L.Karimovalar so‘zga chiqib, kun tartibi yuzasidan takliflarini bildirdi.

Kun tartibidagi mavzuni muhokama etib, yig‘ilish
**QAROR QILADI:**

1. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.R.Raupovning kun tartibiga doir ma’ruzasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Jamoatchilik kengashi huzuridagi Ochiqlikni ta’minlash ekspertlar guruhi va Korrupsiyaga qarshi kurashish ekspert guruhi a’zolariga kengash Nizomi va ish rejada belgilangan vazifalarni izchil ta’minlash hamda berilgan vakolatdan kelib chiqib, o‘z faoliyatlarini yanada kuchaytirish ko‘rsatib o‘tilsin.
3. Jamoatchilik kengashi kotibi A.Jo‘raevga Ekspertlar guruhlari har bir a’zosi bilan ishlash, yig‘ilishlar tashkil etish va ish reja bajarilishini nazorat qilib borish vazifasi topshirilsin.
4. Ushbu yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Bayonlashtirdi:** **A.Jo‘raev**